



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2022-yil 15-dekabr

# **“O‘zkiymyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik uchun 2,4 mlrd. so‘m homiylik mablag‘lari yo‘naltirildi**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” PQ-5281-son hamda 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston sportchilarini navbatdagi yozgi va qishki Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok

etish uchun tayyorgarlik qilish ishlarini jadallashtirish to'g'risida" PQ-127-son qarorlari ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2022-yil 20-apreldagi 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini tayyorlash bo'yicha Respublika komissiyasi 3-son yig'ilish bayonining 3-ilovasiga ko'ra "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan O'zbekiston sportchilariga zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida **2,4 mlrd. so'm** homiylik yordamini ko'rsatish belgilangan.

Bugungi kunda "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarini tomonidan yuqorida ta'kidlangan **2,4 mlrd. so'm** homiylik mablag'lari belgilangan muddatlarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi hisob raqamiga to'liq o'tkazib berildi. Ajratilgan mazkur homiylik mablag'lari O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan tegishli talabnomalar asosida sportchilarimizning 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rishlari uchun yurtimiz va xorijda o'quv-mashg'ulot yig'inlarini samarali tashkil etish, zamonaviy sport inventarlari bilan ta'minlash va barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida sport federatsiyalariga yo'naltirilmoqda. Shu bilan birga, sport federatsiyalariga o'tkazilgan mablag'lar haqida ma'lumotlar muntazam ravishda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi rasmiy veb-saytidagi Ochiq ma'lumotlar ruknida e'lon qilib kelinmoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ hukumatimiz tomonidan mamlakatimizda sportni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarga munosib hissa qo'shishga alohida e'tibor qaratadi.

**"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/uzkiyosanoat-aj-tarmoq-korxanalari-parij-2024-yozgi-olimpiya-homiylik-mablaglari>